

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.04.2021.B.79.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

NAURIZBAEVA ZULFIYA SHARIBAEVNA

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHIMOLI-SHARQIY ZONASI
TUPROQLARINING HOZIRGI HOLATINI EKOLOGIK BOHALASH
(CHIMBOY TUMANI MISOLIDA)**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Naurizbaeva Zulfiya Sharibaevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi shimoli-sharqiy zonasi tuproqlarining hozirgi holatini ekologik baholash (Chimboy tumani misolida)..... 3

Наурызбаева Зульфия Шармбаевна

Экологическая оценка современного состояния почв северо-восточной зоны Республики Каракалпакстан (на примере Чимбайского района)... 19

Naurizbaeva Zulfiya Sharibaevna

Ecological assessment of the current state of soils in the north-eastern zone of the Republic of Karakalpakstan (on the example of the Chimbay region)..... 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 40

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.04.2021.B.79.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

NAURIZBAEVA ZULFIYA SHARIBAEVNA

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHIMOLI-SHARQIY ZONASI
TUPROQLARINING HOZIRGI HOLATINI EKOLOGIK BOHALASH
(CHIMBOY TUMANI MISOLIDA)**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.3.PhD/B994 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.aknuk.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim tarmog‘iga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Utemuratova Gulshirin Najimatdinovna
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Jumamuratov Mirzamurat Ajumuratovich
biologiya fanlari doktori, dotsent

Sherimbetov Vafobay Xalilullaevich
biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

Etakchi tashkilot:

Gulistan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.04.2021.B.79.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 29 » 04 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shox ko‘chasi 41 uy, (institut kichik majlislar zali). Tel: (+99861) 222-17-44, (+99861) 222-96-72, faks: (+99861) 222-17-44, e-mail: aknauk@mail.uz

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resusr markazida tanishish mumkin (№____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shox ko‘chasi 41 uy Tel: (+99861) 222-17-44.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «____» _____ da tarqatildi.

(2025 yil «____»____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi)

Mambetullaeva Svetlana Mirzamuratovna
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor

Boymuradov Xusniddin Toshboltaevich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d. professor

Ajiev Alisher Baxtibaevich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d. professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda butun dunyoda tabiiy, antropogen omillar taʼsirida tuproq shoʻrlanishi va unga taʼsir etuvchi omillarning dinamikasini aniqlash, tuproq degradatsiyasi va unumdorligi pasayishini oldini olish, biologik resurslaridan samarali foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini saqlashda yangi innovatsion yondashuvlar ishlab chiqishga katta etibor qaratilmoqda. Bu borada shoʻrlangan tuproqlarning fizik-kimyoviy, elementar tarkibi, biologik va agrokimyoviy xususiyatlarini baholash, shoʻrlanishga qarshi samarali meliorativ choralarni qollash, shoʻrlanish darajalari boʻyicha xaritalar yaratish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini oshirish katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlarda shoʻrlangan degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini oshirish va ekologik xavfsiz yuqori samarali biologik usullardan foydalangan holda sifatli hosil olish, ekologik muvozanatini yaxshilash maqsadida, tuproq degradatsiyasini oldini olishning samarali usullaridan foydalanish boʻyicha katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, tuproqlar sifati degradatsiyasi va olinadigan mahsulotni ifloslanish xavfini kamaytirgan xolda yerdan foydalanishning ekologik jihatidan oqilona tashkil etishning ilmiy asoslangan yondashuvini ishlab chiqish muhim ustuvorlik kasb etmoqda.

Respublikamizda ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida qurgʻoqchil hududlarda tuproq shoʻrlanishi va meliorativ holatning yaxshilash, tuproq shoʻrlanishi jarayoni oldini olish, sugʻorish tizimlarining notoʻgʻri boshqarilishi bilan bogʻliq muammolarni hal qilishga qaratilgan usullari boʻyicha olingan natijalardan Qoraqalpogʻiston respublikasi shimoli-sharqiy zonasi tuproqlarining hozirgi holatini ekologik bohalash, tuproq resurslarining barqaror boshqarilishi va ekologik xavfsizlikni taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Yer resurslarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish, qishloq xoʻjaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash” boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishida Qoraqalpogʻiston Respublikasi sharoitida yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, tuproq unumdorligini oshirish, ekologik xavfsizlikni taʼminlash va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish orqali barqaror rivojlanish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23 noyabrdagi PF-199-sonli “2024-2028-yillarda Orolboʻyi mintaqasini barqaror rivojlantirish, innovatsiyalar va yashil texnologiyalarni keng joriy etish boʻyicha, qishloq xoʻjaligi yerlari degradatsiyasining oldini olish, yuqori mahsuldorlik salohiyatiga erishish, tuproq unumdorligini tiklash milliy dastur toʻgʻrisidagi Farmoni. 2020-yil 7-sentyabrdagi PF-6061 sonli “Yerlarni hisobga olish tizimini tubdan takomillashtirish va davlat kadastrlarini yuritish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son «2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni

Qarori, 2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida, shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizning turli hududlarida tarqalgan sho'rlangan tuproqlarning xossa-xususiyatlari, meliorativ holati va biologik faolligini o'rganish, unumdorligini yaxshilash va oshirish bo'yicha turli yillarda keng qamrovli tadqiqot ishlari L.T.Tursunov, I.T.Turapov, B.S.Mambetnazarov, V.G.Popov, X.T.Riskieva, R.Q.Qo'ziev, B.Jolibekov, G.M.Nabieva, M.E.Saidova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlaridagi tuproqshunos olimlarimizdan K.K. Gedroys, V.A. Kovda, E.I. Pankova (1985) tuproq unumdorligini oshirish, sho'rlanish va eroziya jarayonlarini boshqarish bo'yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqqan, melioratsiya va agrotexnologiya sohasida ilmiy ishlanmalar yaratgan. Shuningdek, Yu.A. Bresler (1979), V.P. Voronin (1986), A.I. Sudninin (1979) va A.V. Globus (1987) kabi olimlar qishloq xo'jaligi yerlarini qayta tiklash, yerlarining unumdorligini oshirish, tuproq resurslarini boshqarish, melioratsiya va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan muhim tadqiqotlar olib borgan.

Xorijiy olimlar tomonidan tuproq sho'rlanishi va uning sabablarini o'rganish sohasida qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular tuproqlarni fizik-kimyoviy holati, sho'rlanish jarayonlarining mexanizmlari va buning oqibatlarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu olimlarning M.Abrams, S.D.Allison, S.M.Bach, K.S.Hofmockel, R.G.Burns, H.E.Dregne va boshqalar ishlari nafaqat ilmiy ma'lumotlarni boyitadi, balki sho'rlangan tuproqlarni meliorativ holatini yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va tuproq resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy yechimlarni ishlab chiqishga asos yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Qoraqalpog'iston agrorudalari asosida yangi turdagi organomineral o'g'itlar ishlab chiqarishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish" (2020-2024 yy.) fundamental loyihasi shuningdek, GEF MFSА "Janubiy Orolbo'yi vetlandlarining bioxilma-xilligi monitoringi" (2020-2024 yy.) xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Qoraqalpog'iston Respublikasi shimoli-sharqiy zonasi tuproqlarining hozirgi holatini ekologik baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Chimboy tumani hududining o'ziga xos regional tuproq-iqlim sharoitlari, sho'rlanishi, fiziko-mexanik xossalari va kimyoviy elementar tarkibini aniqlash;

degradatsiyalangan tuproqlarga ekologik omillarining ta'sirini tahlil qilish va changning mineralogik tarkibini aniqlash;

Chimboy tumani massivlaridagi tuproqlarning sho‘rlanish darajalarini baholash bo‘yicha xaritalash ishlarini olib borish;

o‘rganilgan hudud tuproqlarining ekologik holati va o‘ziga xos xususiyatlari, sho‘rlanish darajalarini hisobga olgan holda sug‘oriladigan yerlardan oqilona foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti Qoraqalpog‘iston Respublikasi shimoliy-sharqiy hududi Chimboy tumanidagi sug‘oriladigan tuproqlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti tuproqning xossa-xususiyatlari, ekologik holati, sho‘rlanishi, tuproqlarning kimyoviy elementar tarkibi hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida ekologik, statistik (Excel), ko‘p omilli tahlil usullari va GIS (ArcGIS dasturlari) texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor ekologik omillar tasiri ostida Chimboy tumani hududi tuproqlarining fizik-mexanik, kimyoviy xossalari, atmosferadan tushgan changning mineralogik tarkibi aniqlangan;

degradatsiyalangan tuproqlarga ekologik omillarining ta‘siri natijasida gidrokarbonatlar, xloridlar va sulfatli tuzlar bilan sho‘rlanishi aniqlangan;

Chimboy tumani massivlarida tarqalgan tuproqlarining sho‘rlanish darajalari buyicha xaritalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot hududi tuproqlarining ekologik holatini hisobga olgan holda yerlardan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sug‘oriladigan yerlarda tuproq sho‘rlanishi darajasini ekologik nuqtai nazardan baholashning zamonaviy uslublar yordamida tuproqlar kimyoviy elementar va mineralogik takibi, fizik-kimyoviy xususiyatlarining kompleks tahlili, tuproqlarning unimdorlik funktsiyalarini saqlab qolish va samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

irrigatsiya va meliorasiya jarayonlarida tuproq degradatsiyasini kamaytirishga qaratilgan tavsiyalar asosida suv resurslaridan oqilona foydalanish, sho‘rlanishga moyil hududlarda agrotexnik tadbirlarni optimallashtirish va sho‘rlangan yerlarni qayta tiklanishini ta‘minlaydigan meliorativ chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Natijalarning ishonchliligi qo‘yilgan vazifalar kompleks yondashuv asosida yechilganligi, nazariy va amaliy natijalarni bir-biriga mosligi, tadqiqotlar tuproq ekologiyasi zamonaviy rivojlanish tendentsiyalariga mos ravishda bajarilganligi, standart uslublar yordamida olib borilganligi, tadqiqot natijalarining yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi va amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi tuproqlarning unimdorlik darajasini saqlab qolish ushuncha muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fizik-kimyoviy, elementar va organik tarkibi bo‘yicha olingan natijalar shuningdek, agromeliorativ jarayonlarini tartibga solish, optimallashtirishga qaratilgan choratadbirlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, tuproq unimdorligining diagnostik ko‘rsatkichlari va turli tematik xaritalar, shuningdek ekinlar hosildorligiga tasir

qiluvchi omillarning tarkibi, sug'oriladigan yerlar hosildorligini oshirishga qaratilgan agromelarativ tadbirlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining amaliy faoliyati uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'iston Respublikasi shimoli-sharqiy zonasi tuproqlarining hozirgi holatini ekologik bohalash (Chimboy tumani misolida) bo'yicha olingan natijalar asosida:

Chimboy tumanidagi degradatsiyaga uchragan tuproqlarning fizik-kimyoviy tarkibi va hozirgi holati o'rganilib, tuproqlarining sho'rlanish darajalari bilan bog'liqligi bo'yicha ishlab chiqilgan xaritalar Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi 2024 yil 29-fevraldagi 03/026-822-son ma'lumotnomasi). Natijada hududdagi fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvi hamda tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, tuproqning barqaror unumdorligini ta'minlashda agromeliorativ jarayonlarini tartibga solish va optimallashtirishga qaratilgan degradatsiyaga qarshi kurash chora tadbirlarini ishlab chiqish imkonini bergan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi shimoli-sharqiy zonasi tuproqlarining hozirgi holatini yaxshilash, tuproq sho'rlanishini kamaytirish va yaxshilash, sho'rlanish darajalari ta'sirida tuproqlar agroekotizimlarini barqarorlashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar hamda chora-tadbirlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi 2024 yil 7-martdagi 01/18-2-754-son ma'lumotnomasi). Natijada Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'rlangan tuproqlarning ekologik holatini baholash asosida qishloq xo'jaligi yerlarini muhofaza qilish, tuproqlar unumdorligini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta maqola, shulardan 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi va qo'yilgan vazifalar O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos keladigan tadqiqotlarning maqsadi shakllantirildi va vazifalari belgilandi, tadqiqot ishining ob'ektlari va predmetlari berilgan, ilmiy tadqiqot natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarining ilmiy yangiligi va

amaliy ahamiyati hamda olingan natijalar chop qilingan ishlarda va dissertatsiyaning strukturasi o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Sug‘oriladigan erlardagi tuproq sho‘rlanishining dolzarb muammolari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistondagi sug‘oriladigan erlarning hozirgi holati, erlar degradatsiyasiga uchrash sabablari, sho‘rlanish sabablari va sug‘oriladigan erlarning hozirgi holati, eskirgan sug‘orish va drenaj tizimlari, grunt suvlarining ko‘tarilishi, minerallashgan suvlar va qurg‘oqchil iqlim sharoitlari tuproqning sho‘rlanishi natijasida ekologik tizimning buzilishi va istiqbollari ko‘rsatilgan. Adabiy materiallarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Orolbo‘yi hududi tabiiy-iqlim sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari va tadqiqot uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot olib Orolbo‘yi hududining tabiiy-iqlim sharoitlari, fiziko-geografik o‘ziga xosliklari va tadqiqotda qo‘llanilgan usullar bayon etilgan. Hududning qurg‘oqchil iqlimi, sho‘rlanishga moyil tuproqlari va murakkab ekologik sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqotda tasdiqlangan kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar qo‘llanilib, tuproq xususiyatlarini tahlil qilishda zamonaviy texnikalar qo‘llangan. Bu usullar tuproq sho‘rlanish darajasini aniqlash va hududning tabiiy sharoitlariga mos ekologik yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqolpog‘iston Respublikasi shimoli-sharqiy hududida sug‘oriladigan tuproqlarning xossalari va ularning sho‘rlanish ta‘sirida o‘zgarishi”** deb nomlangan uchinchi bobi Tuproq degradatsiyasiga olib keluvchi ekologik omillarini o‘rganishga, 2018-yili Qoraqolpog‘iston Respublikasida kuchli bo‘ron natijasida Kaspiy dengizi qirg‘oqlari va Orolbo‘yi mintaqalaridagi changdan havoda atmosfera aerollari hosil bo‘ldi. Shu tuz aerollarning kirib borishi natijasida tuproq sho‘rlanishi, tuzli changning kimyoviy va fizik-kimyoviy tarkibini aniqlashga bag‘ishlangan.

Tadqiqot uchun bu tuz-chang aerollardan namunalar olindi, tuz chang namunasining fizik-kimyoviy va kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish natijasida tarkibida 1 dan 100 nm gacha bo‘lgan kolloid o‘lchamdagi dispers zarralarni o‘z ichiga olgan va Na₂SO₄, NaCl, ko‘rinishidagi suvda eriydigan va erimaydigan tuzlarning, CaSO₄·2H₂O, CaCO₃, MgCO₃, CaMg(HCO₃)₂, MgSO₄ va gil, loy va qum minerallari borligini ko‘rsatdi.

Tuzli chang namunasi diffraktogrammasi chiziqlarining intensivligi Na₂SO₄, NaCl, CaSO₄·2H₂O, CaCO₃, Ca(Mg)CO₃, CaMg(HCO₃)₂, MgSO₄ holida suvda eriydigan va erimaydigan tuzlar mavjudligini tasdiqlaydi. (1-jadval, 2-jadval va 1-rasm.)


1-jadval

Chang namunasi tarkibidagi suvda eruvchi tuzlar tarkibi

№	Namuna	Quruq qoldiq %	Tuz miqdori %	Zararsiz tuzlar, %		O‘rtacha zararli tuzlar, %				Kuchli zararli tuzlar %				
				Ca(HCO ₃) ₂	CaSO ₄	Na ₂ SO ₄	NaCl	NaHCO ₃	CaCl ₂	MgSO ₄	MgCl ₂	Na ₂ CO ₃	MgCO ₃	Mg(HCO ₃) ₂
1.	Chang namunasi	17,412	16,624	0,584	2,504	9,599	1,404	-	-	2,406	-	0,127	-	-

Chang namunasi tarkibidagi suvda eriydigan mineral tuzlarning dastlabki kimyoviy tuzilishi va tarkibi, 27.05.2018 y.


№	Namuna	Quruq qoldiq %	CO ₃ %/mg /ekv	Umumi y HCO ₃ %/mg/ek	Cl ⁻ % / mg/ek	SO ₄ % / mg/ek	Ca % / mg/ek	Mg % / mg/ek	Anion-kation mg/ek	Na+K		komponentlar yig'indisi %	Sho'rlanish tipi	Sho'rlanish darajasi
										mg/ek	%			
1.	Chang namunasi	17,412	0,072	0,439	0,852	10,176	0,882	0,486	245,6	161,6	3,717	16,624	Sulfatli	Judakuchli chorlangan
			2,4	7,2	24,0	212,0	44,0	40,0	84,0					



1-rasm. Daraxt barglariga yotqizilgan tuzli chang namunasidagi minerallarning rentgen nurlanishining diffraksiyasi

Qoraqalpog‘iston tabiat fanlari ilmiy-tekshirish instituti hududidan tuz chang aerazol namunalari olindi. Difraksion naqsh "XRD-6100" difraktometrida 0,02° 2theta qadamlari bilan 4 dan 80 2theta darajagacha olingan. Rietveld usuli bo‘yicha rentgen fazalarining miqdoriy tahlili "Profex – Open source XRDand Reitveld Refinement" dasturi yordamida amalga oshirildi. Miqdoriy rentgen fazali tahlilining asosiy komponentlari va natijalari 3-jadvalda keltirilgan. Tuz bo‘ronidan keyin tushgan tuz chang namunasining fizik-kimyoviy va kimyoviy xossalarini o‘rganish natijalari loy minerallari ko‘rinishidagi natriy, kaliy va magniy alyuminosilikatlarini ham ko‘rsatdi (2-rasmga qaran’).

Orol dengizining ochiq tubi mineral tuzlar va meliorativ kollektorlardan oqib tushadigan boshqa zararli tuzlar aralashmasidan iborat dengiz tuzlari bilan qoplangan. Shamol bilan uchib kelgan tuzli chang aholi salomatligiga havf tug‘diradi va atrofdagi tuproq unumdorligini pasaytirishi mumkin.



2-Rasm. Yassi yuzalarga yotqizilgan tuzli chang namunasidagi minerallarning rentgen nurlanishining diffraksiya shakllari

4 - Jadval

O‘rganilgan tuproqlarning mexanik tarkibi

Qatlam chuqurligi, sm	Fraksiyalar %, fraksiyalar o‘lchami, mm							Fizik loy miqdori (<0,01mm)	Mexanik tarkib
	>0,25	0,25-0,1	0,1-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005-0,001	<0,001		
Kesma-1 QDDITI massivi, ekin ekiladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar yengil sho‘r-n, x-s									
0-29	0,8	0,2	13,5	40,0	18,7	14,9	11,9	49,5	Og‘ir qumoq
29-52	0,4	0,7	29,7	34,4	13,9	11,1	9,8	34,8	O‘rta qumoq
52-75	1,2	1,8	33,8	39,6	10,2	6,4	7,0	23,6	Yengil qumoq
75-103	0,8	1,4	30,6	38,1	11,4	8,5	9,2	29,1	Yengil qumoq
103-140	0,4	0,6	14,4	33,2	17,6	21,0	12,8	51,4	Og‘ir qumoq
Kesma-1 Kenes massivi, ekin ekiladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar s-x									
0-30	1,5	0,5	25,9	32,2	14,9	13,2	11,8	39,9	O‘rta qumoq
30-50	1,0	0,2	17,7	35,6	17,2	15,1	13,2	45,5	Og‘ir qumoq
50-72	1,0	0,2	15,1	34,2	15,6	19,2	14,7	49,5	Og‘ir qumoq
72-100	0,4	0,1	15,8	27,8	18,1	22,3	15,5	55,9	Og‘ir qumoq
100-120	0,4	0,1	9,5	21,9	20,3	31,5	16,3	68,1	Yengil loy
Kesma-1 Tazajol massivi, ekin ekiladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar, s-x									
0-10	1,6	0,6	21,0	27,5	18,3	17,6	13,4	49,3	Og‘ir qumoq
10-36	0,6	2,1	21,6	37,6	18,0	9,6	10,5	38,1	Og‘ir qumoq
36-57	0,6	3,6	25,2	39,3	12,6	10,5	8,2	31,3	O‘rta qumoq
57-83	1,8	2,0	33,6	38,6	10,3	6,0	7,7	24,0	Yengil qumoq
83-100	6,0	8,1	39,0	33,8	5,1	3,5	4,5	13,1	Qumloq
100-130	8,2	4,3	41,6	37,0	3,0	2,6	3,3	8,9	Yopishqoq qum

Tuproqshunoslik fani yaralibdiki sho'rlangan tuproqlar dunyoning ko'pgina davlatlaridagi eng muhim tadqiqot ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Bu birinchi navbatda sho'rlangan tuproqlarni er sharining turli hududlarida tarqalganligi bilan izohlanadi, ikkinchidan esa, sho'rlanish arid va semiarid mintaqalar tuproqlarining muhim bir genetik xossalardan va meliorativ holatini o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek ular unumdorligini pasaytiruvchi omillardan sanaladi, uchinchidan esa, sho'rlanish–erlarning noqulay ekologik holatini aks ettiruvchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, tuproqning kimyoviy tarkibi tuproq hosil bo'lish jarayonida shakllanadi, shu bois ularni batafsil o'rganish tuproq genezisi haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini berishi bilan bir vaqtda tuproqda yuz berayotgan muhim jarayonlarni ko'rsatadi.

Dala tadqiqotlarimiz davomida Chimboy tumanida tarqalgan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning kimyoviy tarkibini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida ushbu tuproqlarning genetik tuzilishi eng avvalo ular shakllangan Daryo yotqiziqlari rejimi bilan bog'liqligi, shuningdek, hududning reliefi, tuproq hosil qiluvchi jinslarning xususiyati, o'simlik qoplami, iqlim sharoitlari, yer osti suvlarining chuqurligi va sho'rlanish darajalari bilan chambarchas bog'liqligi ma'lum bo'ldi.

Tuproqlar sho'rlanishi va suv rejimining nihoyatda tez o'zgaruvchanligi tuproq qoplamining tuzilishi va tarkibiga, shuningdek ularning xilma-xilligini belgilovchi o'simlik qoplamiga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazmoqda. Shu bois, cho'l mintaqasi tuproq hosil bo'lish jarayonlarini o'rganishda sho'rlangan tuproqlarning kimyoviy tarkibi sho'rlanish darajalarini aniqlashda muhim diagnostik ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan tuproqlar profili qo'riq sho'rhok tuproqlardan ekin ekiladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar tomon gumusli qatlam qalinligining oshishi, changsimonlikning kamayishi, mexanik tarkibining og'irlashishi va strukturasi o'zgarishi bilan xarakterlanadi.

Ilovadagi 18-jadvalda Chimboy tumanidagi har bir hududdagi sug'oriladigan tuproqlarning sho'rlanish darajasi, sho'rlanish tipi va kimyoviy elementlarning miqdori haqida ma'lumotlar keltirilgan.

1. Chuqurlik (sm): har bir nuqtada chuqurlik diapazoni (0-10 sm, 10-20 sm va hokazo) keltirilgan. Bu yerda tuproqning sho'rlanish darajasini chuqurlikka qarab aniqlash uchun tahlil o'tkazilgan.


2. Quriq qolgan qismi: chuqurlikdagi quriq qolgan tuz miqdori keltirilgan, bu tuzning aniq bir foizi hisoblanadi.

3. Kationlar va anionlar tarkibi: HCO_3 (gidrokarbonat), Cl (xlorid), SO_4 (sulfat), Ca (kaltsiy), Mg (magniy), $\text{Na}+\text{K}$ (natriy va kaliy) kabi elementlar keltirilgan.

4. Tuzlanish darajasi va turi: har bir chuqurlik bo'yicha aniqlangan sho'rlanish turi (masalan, X-S – xlorid-sulfatli) va uning darajasi past yoki o'rtacha ekanligi ko'rsatilgan.

Bu tahlillar natijasida har bir nuqta va chuqurlikdagi tuproqning kimyoviy tarkibi va sho'rlanish turi o'rganilgan. Shuningdek, tuproqning pH darajasi ham

ko'rsatilgan bo'lib, bu hududdagi tuproqlarning pH darajasi bir xil bo'lib, 8,0 ni tashkil qilgan.



3-rasm. Tuproq tarkibidagi gumus natijasi yillar buyicha dinamikasi

Tadqiqotlar davomida, hududda tarqalgan tuproqlarning agrokimyoviy va kimyoviy xossalarini sho'rlanish ta'sirida sezilarli ravishda o'zgarishi kuzatildi. Ma'lumki, gumus tuproqning ko'pgina muhim xususiyatlarini belgilaydi, uning fizik holatini, agrokimyoviy ko'rsatkichlarini, biologik faolligi va boshqalarni, gumus miqdorini oshishi natijasida o'simliklarning o'sish va rivojlanish sharoiti yaxshilanadi, tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi oshadi.


Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan hudud tuproqlari gumusga juda boy emasligi bilan tavsiflanadi. Tuproq profillarida gumusning tarqalishi aniq qonuniyatlarga asoslanadi. Barcha tuproqlarda gumusning katta miqdori yuqori gorizontlarda tarqalgan, quyi qatlamlarda gumus miqdorining juda kamligi kuzatiladi (3-rasm).



4-rasm. Tuproq tarkibidagi fosfor natijasi yillar buyicha dinamikasi


Fosfor o'simliklarni oziqlanishida tutgan o'rni bo'yicha azotdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. O'rganilgan tuproqlarning yuqori qatlamida yalpi fosfor miqdorining 0,089 - 0,217 % atrofida o'zgarib turishi ma'lum bo'ldi. Yalpi fosfor miqdorining ba'zi o'zgarishlari gumus miqdoriga va ona jinsning mexanik tarkibiga bog'liqdir. Fosforning umumiy miqdori asosan yuqori gorizontlarda ko'p bo'lishini, ushbu qatlamlardagi uning biologik akkumulyasiyasi bilan bog'lash mumkin (4-rasm).

Ma'lumki almashinuvchan kaliy miqdori o'simliklarni oziqlanishida, fizik-kimyoviy xossalariga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir vaqtda, ularning hayotida



5-rasm. Tuproq tarkibidagi K₂O natijasi yillar buyicha dinamikasi

katta ahamiyatga ega elementlardan sanaladi. Hudud tuproqlari almashinuvchan kaliy miqdori bo'yicha o'rtacha, kam va juda kam ta'minlangan tuproqlar guruhlariga bo'linadi. Bunda albatta tuproqlarning mexanik tarkibi, gumus miqdori bilan ta'minlanganligi, sho'rlanish darajasi va madaniylashganlik holati muhim hisoblanadi. Shunday qilib o'rganilgan tuproqlarda almashinuvchan kaliy miqdorining 45 - 210 mg/ kg oralig'ida tebranib turishi ma'lum bo'ldi (5-rasm).




6-rasm. Tuproq tarkibidagi azot natijasi yillar buyicha dinamikasi

Yalpi azot miqdori sho‘rlanmagan va kuchsiz sho‘rlangan eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning yuqori haydalma qatlamida 0,090 dan 0,118 % gacha, haydov osti qatlamida 0,065 dan 0,096 % atrofida o‘zgarib turishi kuzatildi, profilning chuqur qatlamlarida gumus miqdoriga va tuproqning mexanik tarkibiga mos ravishda kamayib 0,018-0,034 % ni tashkil etdi (6-rasm)


“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumanidagi ekin ekiladigan yer maydonlarining sho‘rlanish darajasini ekologik baholash” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Chimboy tumani ekin ekiladigan erlarining sho‘rlanish darajasi bo‘yicha yer fondi ekologik faktorlar, sug‘oriladigan tuproqlarning sho‘rlanish darajalarini xaritalash ishlari olib borildi.

Tuzlarning zaharli bo‘lishi ko‘pincha uning tarkibidagi ionlarga bog‘liq bo‘ladi. O‘rta Osiyoning ekin ekiladigan dexqonchiligida madaniy o‘simliklar uchun ko‘pincha xloridli sho‘rlanish zaharli bo‘lib hisoblanadi, chunki ularning tuproqdagi 0,01 foiz miqdordagisi ham ekinlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tuproqdagi sulfatlarni zaharli ta‘siri, ularning miqdori 0,2-0,3% bo‘lganda kuzatiladi.


Tuproqlarning sho‘rlanish xaritogrammalarini tuzishning asosiy mohiyati tuproqlarning sho‘rlanish sabablarini aniqlash, tuproq sho‘rlanishining oldini olish, ekinlar agrotexnikasi va meliorasiyasiga doir tavsiyalar berishdan iborat



7-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumani Qoraqalpoq Davlat ilmiy tadqiqot instituti tajriba xo‘jaligidagi sug‘oriladigan tuproqlarning sho‘rlanish xaritogrammasi




8-Rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani "Kenes" massividagi sug'oriladigan tuproqlarning sho'rlanish xaritogrammasi



9-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani "Tazajol" massividagi sug'oriladigan tuproqlarning sho'rlanish xaritogrammasi.


Qishloq xo'jaligi hosildorligi va havo temperaturasi, yog'ingarchilik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari

Hozirgi vaqtda ekologik omillar ko'rsatkichlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi o'rtasida korrelyatsion munosabatlarni aniqlash zamonaviy ekologiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, Orolbo'yi mintaqasidagi havo harorati qishloq xo'jaligi mahsulotlari (jo'xori, makkajo'xori) umumiy hosildorligiga ta'siri asosiy ta'sir etivchi omillardan biri hisoblanadi.




10-rasm. Qishloq xo'jaligi hosildorligi va havo temperaturasi o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari

Bizni olib borgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha havo haroratining optimal ta'siri tufayli o'sish va rivojlanishga ta'siri makkajo'xori va jo'xori kabi ikinlarning hosildorligi uchun stabil holatda ekanligi ya'ni korrelyatsiya koeffitsienti $r=0,68$ ni tashkil etganligi aniqlandi. Polinomial trend chizig'i yuqoriga yo'naltirilgan (10-rasm)



11-rasm. Vegetatsiya davrida yog'ingarchilik ko'rsatkichlari qishloq xo'jaligi ikinlar hosildorligi o'rtasidagi bog'liqlik dinamikasi

Tadqiqot yillarida ob-havo sharoiti o'sish davrining ko'ra harorat va yog'ingarchilik jihatidan o'zgarib turardi. Biz o'rgangan davrda yog'ingarchilikning taqsimlanishi notekis edi. Shu munosabat bilan yog'ingarchilik va ikinlar hosildorligi (makkajo'xori va jo'xori) o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risidagi ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, zaif korrelyasiya mavjud, bulgan $R = 0,03$. E'tibor bering, aniqlangan ulanish sodir bo'ladi, chunki Qoraqalpog'iston Respublikasida vegetatsiya davrida iqlim sharoitining o'zgarishi ma'lum miqdordagi yog'ingarchilikning yog'ishi alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, yog'ingarchilik va yuqori harorat, hosildorlikning yuqori sifatli donni shakllantirish uchun qulay bo'lgan (11-rasm).



12-rasm. Dinamikada o'rtacha yillik havo harorati ko'rsatkichlari va qishloq xo'jaligi ikinlarning hosildorligi (makkajo'xori) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rsatkichlarining dinamikasi

Ikinlarning o'sishi va rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtacha yillik havo harorati ko'rsatkichlari ma'lumotlarini monitoring dinamikasida taqqoslab, ularning dinamikasi vegetatsiya davridagi ob-havo sharoiti va o'tmishdoshlari bilan sinxron degan xulosaga kelish mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, turli etuklik guruhlarining navlari taxminan bir xil javob bilan tavsiflanadi ($R=0,24$, $p>0,001$) (12-rasm).

XULOSALAR

1. Chimboy tumani tuproqlarining ekologik-meliorativ xolatining kimyoviy ko'rsatkichlari bevosita hududning tuproq-iqlim sharoitlari, reliefi, tuproq xosil qiluvchi jinslar, o'simlik qoplami, tuproqlarning fizik-mexanik xossalari, kimyoviy elementar tarkibi, yer osti suvlari sathining joylashishi sho'rlanish darajalari bilan

bog‘liq bo‘lib, bularning barchasi kompleks xolda ushbu hududda gidromorf tuproqlarning shakllanishiga xizmat qilgan.

2. Abiotik omillar tasirida yuzaga kelgan chang bo‘ronidan keyin (2018-yil) atmosferadan tushgan chang-tuz namunasi tarkibi o‘rganilganda Na_2SO_4 , NaCl , $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, CaCO_3 , MgCO_3 , $\text{CaMg}(\text{HCO}_3)_2$, MgSO_4 ko‘rinishidagi suvda eriydigan va erimaydigan tuzlar, gil, loyli va qumli minerallar mavjudligi va zararsiz tuzlar - $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ 0,584 % va CaSO_4 – 2,504 %, o‘rtacha zararli tuzlar - Na_2SO_4 9,599 % va NaCl 1,404 %, kuchli zararli tuzlar - MgSO_4 2,406 % va Na_2CO_3 0,127% ni tashkil etganligi aniqlangan.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi shimoliy zona yerlarining sho‘rlanishiga sababchi asosiy antropogen omillar: yer osti suvlarining satxiga bogliq holda tuzlarining ko‘tarilishi (70%), irrigatsiya jarayonida (20%) va kuchli tuz bo‘ronlar oqibatida tuzlarning migratsiyasi (10%) ekanligi ilmiy asoslangan.

4. Abiotik va antropogen omillar o‘zgaruvchan bo‘lib, yer osti zax suvlarining 1,0 m. dan yuqori ko‘tarilishi, irrigatsiya davridagi suv tarkibidagi tuzlarning (1,5-2,0 g/l.dan eng yuqori ko‘rsatgichi 8,5 mg/l gacha) bo‘lishi va kuchli tuz bo‘ronlarining yil davomida qaytalanish soniga bog‘lik ekanligi isbotlangan.

5. Tuproqlarning minerallashish ximizmiga ko‘ra, xlorid-sulfatli va sulfat-xloridli tipga mansubligi kuzatildi. Geoaxborot tizimlari asosida tuproqlarning sho‘rlanish darajalari bo‘yicha tuzilgan xaritalarga ko‘ra Qoraqalpoq dexqonchilik ilmiy tadqiqot instituti yerlarining ekin ekiladigan maydoni 665,0 ga bo‘lib, kuchsiz sho‘rlangan maydonlar 70 %, Kenes massivida esa 3432,1 ga maydonning 35 %-i o‘rtacha sho‘rlangan va Tazajol massivida 2169,1 ga maydonning 55 %-i kuchli sho‘rlangan tuproqlar ekanligi aniqlandi.

6. Chimboy tumani ekin ekiladigan yerlari turli darajada sho‘rlangan, turli mexanik tarkib va sho‘rlanish tiplariga egaligini, tuproq sho‘rlanishi bo‘yicha qo‘shni tumanlariga qaraganda kamroqligini, sho‘rlanish jarayonini oldini olish, inobatga olib, tuproq unumdorligi va mahsuldorligi hamda qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini muntazam oshirib borish uchun gidrotexnik, agrotexnik va meliorativ tadbirlar to‘liq bajarilishi tavsiya etiladi.

7. Ekin ekiladigan asosiy maydonlarda vujudga kelgan gidromorf suv rejimini (grunt suvlari 1,0-2,0 m dan), yarim gidromorf suv rejimiga (2,5-3,0 m gacha) o‘tkazish lozimligi, tumanning barcha hududlari yer maydonlarida yer osti grunt suvlarining sathi yer yuzasiga yaqinligi hamda sho‘rlangan yerlar mavjudligi sababli gidromeliorativ tizimlar har 2 - 3 yilda to‘liq tozalab turilishi, yer osti suvlari oqimi to‘la ta‘minlagan sharoitda grunt suvlarining sathi "kritik chuqurlik"da (2,5-3,0 m) ushlab turilishi, zarurat tug‘ilganda qo‘shimcha zovurlar qazish ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

8. Meliorativ tadbirlar ichida tuproq shoʻrini yuvish eng asosiy va muhim tadbirlardan hisoblanib, uni oʻz vaqtida va sifatli oʻtkazish, hududlar uchun tuzilgan "tuproq shoʻrlanish xaritogrammasi"da ekin ekiladigan yerlarning tuproq-meliorativ holatini tavsiflovchi yetarlicha maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, shoʻr yuvish ishlarini xaritanomalar asosida amalga oshirish, birinchi navbatda mavjud suv resurslari va mahalliy tuproq-ekologik hamda iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda oʻtkazish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.04.2021.В.79.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ИНСТИТУТ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК**

НАУРЫЗБАЕВА ЗУЛЬФИЯ ШАРИБАЕВНА

**ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ ПОЧВ
СЕВЕРО-ВОСТОЧНОЙ ЗОНЫ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН
(НА ПРИМЕРЕ ЧИМБАЙСКОГО РАЙОНА)**

03.00.10 – Экология

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

Нукус - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2023.3.PhD/B994

Диссертация выполнена в Каракалпакском научно-исследовательском институте естественных наук.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.aknuk.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Утемуратова Гулширин Нажиматдиновна
доктор биологических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты: Жумамуратов Мирзамурат Ажимуратович
доктор биологических наук, доцент

Шеримбетов Вафобай Халилulloевич
PhD биологических наук, доцент

Ведущая организация: Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «29» 04 2025 года в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.04.2021.B.79.01 при Каракалпакском научно-исследовательском институте естественных наук (Адрес: 230100, г. Нукус, проспект Бердаха, дом 41, малый конференц-зал института). Тел.: (+99861) 222-17-44, (+99861) 222-96-72, факс: (+99861) 222-17-44, e-mail: aknuk@mail.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук (зарегистрировано за №__). Адрес: 23100, г. Нукус, проспект Бердаха, дом 41. Тел.: (+99861) 222-17-44.

Автореферат диссертации разослан: «___» _____ 2025 г.
(реестр протокола рассылки № ___ от «___» _____ 2025).

Мамбетуллова Светлана Мирзамуратовна
Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.б.н., профессор

Боймуратов Хуснидин Тошболтаевич
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

Ажиев Алишер Бахтыбаевич
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Сегодня во всем мире большое внимание уделяется разработке новых инновационных подходов к определению динамики засоления почв под воздействием природных, антропогенных факторов, предупреждению деградации почв и снижения плодородия, эффективному использованию их биологических ресурсов, сохранению продовольственной безопасности. В этом плане оценка физико-химических, элементных, биологических и агрохимических свойств засоленных почв, применение эффективных мер по мелиорации засоленных почв, создание карт по уровням засоления, модернизация ирригационных систем и повышение плодородия деградированных почв имеет большое научно-практическое значение.

В ведущих мировых научных центрах ведется большая научно-исследовательская работа по использованию эффективных методов предотвращения деградации почв с целью повышения плодородия засоленных деградированных почв и получения качественного урожая с использованием экологически безопасных высокоэффективных биологических методов, улучшения экологического баланса. В связи с этим важным приоритетом становится разработка научно обоснованного подхода к экологически рациональной организации землепользования при снижении риска деградации качества почв и загрязнения получаемого продукта.

